

MOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBI YUZASIDAN MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTLARIDA KUTILAYOTGAN O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR

Abdullayeva Zilola Faxriddin qizi

Toshkent iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda xalqaro moliya kengashlarida aynan moliyaviy aktivlarga doir maslalarga tegishli bo'lgan standartlarga kiritilayotgan o'zgarishlar aks ettirilgan. Ma'lumot bazasining yuqori su'ratda o'sayotgaligi sababli eng so'ngi o'zgarishlarni o'rganish maqsad qilingan. Ushbu maqola orqali bugungi kunda moliyaviy aktivlar hisobini takomillashtirish borasida olib borilayotgan izlanishlar va ularning amaliyotda qaysi davrga kelib joriy qilinishi yuzasidan masalar ma'lumot sifatida qayd etilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy aktivlar, shartli hisob, Global Preparers Forum, o'z kapital vositalari, hedjlash, adolatli hisob, standart, shartnomaviy xususiyat, guruh hisobi, konsolidatsiya, sof investitsiya, hosilaviy qiymat, individual yoki alohida hedj.

Bugungi kunda eng qimmat va tez yangilanib borayotgan narsa bu ma'lumot ekanligi hech kimga sir emas. Jahonning turli mamlakatlarida iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida turli ko'rinishdagi tashkilot va jamiyatlarda moliyaviy instrumentlar hisobini tuzish va auditini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda moliyaviy hisobot tuzishda buxgalteriya prinsiplariga rioya qilish, foyda va zararlar hamda boshqa yalpi daromadlar hisobini takomillashtirish, moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni takomillashtirish, moliyaviy hisobot auditida muhimlik darajasini aniqlash, auditorlik risklarining maqbul to'plamini aniqlash, auditorlik xulosalarini tuzish masalalari o'z yechimini topgan. E'tirof etish joizki, tadqiqotlar yo'nalishida ayni paytda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiyalash, moliyaviy hisobot auditida hisobot davridan keyingi hodisalar va faoliyat uzluksizligini baholash, auditorlik dalillarining yetarliligi va mosligini ta'minlashda yozma taqdimnomalardan foydalanish jarayonini takomillashtirishga erishilgan. Lekin xalqaro standartlar talablari darajasida moliyaviy hisobotni tuzish va auditni tashkil qilish bilan bog'liq dolzarb masalalar hanuzgacha to'liq yechimini topmagan.

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish doirasida ularda moliyaviy instrumentlarni takomillashtirish, ular hisobini yuritish va boshqaruv prinsiplarini joriy etish, buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etish moliyaviy instrumentlar hisobiga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, "auditorlik tashkilotlarini, auditorlarni auditning xalqaro standartlarini qo'llash masalalarida faol uslubiy

jihtadan qo'llab-quvvatlashni tashkil etish"²⁸² vazifasi belgilanishi moliyaviy hisobot auditini xalqaro standartlar asosida o'tkazishni taqozo etadi. Mazkur vazifalar moliyaviy hisobotni tuzish va auditini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish hamda uning uslubiy asoslarini takomillashtirish muhimligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 19 sentabrdagi PQ-3946-son "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 apreldagi 171-con "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari, shular jumlasidandir.

Demak, davlatimiz o'zning moliyaviy darajasini xalqaro maydonda keng ko'lamda korsatishni o'z oldiga maqsad qilgan ekan, jahonda yuz berayotgan o'zgarishlarni ham inobatga olishga majbur. Jumladan, biz o'rganib chiqayotgan moliyaviy instrumentlar hisobi va unga tegishli hisblashishlar borasida jahon buxgalteriyani hujjatlashtirish maydonida ham qator yangiliklar bo'lib turgani hech birimizga sir emas.

Shular doirasida, 2025 yil 28 martida "Global Preparers Forum"²⁸³ i uchrashuvida ko'rib chiqilgan maslalardan biri MHXS 9 moliyaviy instrumentlar, BHXS 32 moliyaviy instrumentlar taqdimoti hamda MHXS 7 moliyaviy instrumentlarda risk menejment qismlariga joriy 2025 yilning 4 choragida qator yangiliklarni kiritishni amalga oshirishdan iboratdir. Bu o'zgarishlardan kelib chiqadigan maqsad shulardan iboratki, korxonada o'zida ishlab chiqayotgan moliyaviy aktivlar haqidagi moliyaviy hisobotlarni yaxshilashni ta'minlash hamda, BHXS 32 dagi mavjud muammolarni hal qilish.

Kutilayotgan o'zgarishlar quyidagicha yondashuvlarga ega:

1. Amaliy masalalarini hal qilish uchun BHXS 32 tasniflash tamoyillarini aniqlash:

- qat'iy belgilangan shart
- qonunlar yoki qoidalarining ta'siri
- o'z kapital vositalarini sotib olish majburiyatlari
- shartli hisob-kitob qoidalari
- aktsiyadorning ixtiyori

²⁸² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son Qarori. www.lex.uz

²⁸³ Ushbu hujjat Global Preparers Forumining ochiq yig'ilishida muhokama qilish uchun tayyorlangan. Ushbu ma'lumotlar Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi (IASB) yoki har qanday individual IASB a'zosini nuqtai nazarini ifodalamaydi. Hujjatdagi har qanday sharhlar nimaning maqbul yoki qabul qilinishi mumkin o'lmaganligini belgilashni nazarda tutmaydi IFRS® Buxgalteriya hisobi standartlarini qo'llash. IASBning texnik qarorlari ommaviy ravishda qabul qilinadi.


→ qayta tasniflash.

2. Taqdimot va oshkor qilishni yaxshilash.

3. Qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar va illyustrativ misollar keltirish.

Yuqoridagi masalalar yuzasidan birlamchi ishlanmalar 2025 yilning 4 choragida taqdim etildi va yakuniy versiyasi 2026 yilda taqdim etilishi kutilmoqda.

Ushbu forumda xalqaro tashkilot oldiga qo'ygan muhim bosqichlar quyidagicha.²⁸⁴



MHXS 9 hamda MHXS 7 bo'yicha o'zgarishlar esa quydagilarni o'z ichiga oladi.

Unga ko'ra, MHXS 9 o'lchov talablari va amalga oshirish davridan keyingi ko'rib chiqishlar tasnifi borasidagi fikr va mulohazalarga javoban talablarni aniqlash.

Elektron naqd pul o'tkazmalarida hisobdan chiqarilgan moliyaviy majburiyatlarni to'xtatish;

- Moliyaviy aktivlarda pul oqimining shartnomaviy xususiyatlari;

²⁸⁴ Ushbu hujjat Global Preparers Forumining ochiq yig'ilishida muhokama qilish uchun tayyorlangan.

• Adolatli qiymatdagi o'zgarishlar va boshqa daromadlarda aktsiyadorlik vositalarini oshkor qilish talablari.

Bular bo'yicha natijalar 2026 yilning yanvar oyida bo'lishi kutilmoqda.

Bundan tashqari 9-IFRSning 2.4-bandining shaxsiy foydalanish talablarini qo'llashga hamda xedjlangan ob'ektni o'zgaruvchan nominal sifatida belgilashga ruxsat berilishi kutilmoqda.

Amaldagi standartga ko'ra, xedjlash munosabatlaridagi xedjlangan obyektlar bo'lgan moliyaviy majburiyatlar bo'yicha daromad yoki zarar foiz stavkalari xavfi portfelini xedj qilishdagi adolatli qiymatni himoya qilish uchun IAS 39 ning 6.5.8-6.5.14 bandlarga muvofiq tan olinardi. Ammo bugungi kunda standartning ushbu bandlari standartdan o'chirilgan.

Hosilaviy bo'lmagan moliyaviy aktiv yoki hosilaviy bo'lmagan moliyaviy majburiyat faqat xorijiy valyuta riskini himoya qilish uchun xedjlash vositasi sifatida belgilanishi mumkin.

Hedjlash hisobini hisobga olish maqsadi uchun faqat hisobot beruvchi tashkilotdan tashqari (guruh yoki yakka tashkilot) ni hisobga olgan vositalar hedjlash vositalari sifatida belgilanishi mumkin. Garchi konsolidatsiyalangan guruhdagi alohida korxonalar yoki korxonalar ichidagi bo'linmalar guruhning boshqa sub'yektlari bilan hedjlash operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin bo'lsada, agar tashkilot ichida bo'linishlar yuzaga kelsa konsolidatsiyalangan guruh ichidagi har qanday operatsiyalar bekor qilinadi.

Shu sababli, bunday xedjirlash operatsiyalari guruhning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotida xedjlash hisobiga mos kelmaydi. Biroq, ular individual yoki alohida hedjni hisobga olish uchun guruh tarkibidagi ayrim korxonalarining moliyaviy hisobotlari, agar ular hisobot qilinayotgan shaxsdan tashqarida talablarga javob berishi kerak.

Hedjlash munosabatlari 3 xil bo'ladi:

- 1) Adolatli qiymatni hedjrlash
- 2) Pul oqimini hedjrlash
- 3) Horijiy faoliyatga sof investitsiyani hedjrlash.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki biz yoshlar zamon bilan hamnafas bo'lish barobarida jahonda yuz berayotgan o'zgarishlarni ayni davrida amaliy natijalarini o'qib o'rganib mamlakatimiz amaliyotiga joriy etishni amalga oshirsak, yurtimizni jahon sahnasiga olib chiqishimiz yanada tezroq va sifatliroq bo'ladi desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Global Preparers Forumining ochiq yig'ilishida muhokama qilish uchun tayyorlangan hujjat*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son Qarori.*

3. www.lex.uz

4. www.ifrs.org